



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 3-iyun, № 111-112 (9282-9283)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## KIMYO SANOATI TARAQQIYOTINING YANGI BOSQIHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-iyun kuni "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkiga tashrif buyurib, bir qator korxonalar faoliyati bilan tanishdi hamda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish va hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishini o'tkazdi.



Davlatimiz rahbari dastlab texnoparkdagi "Kmita Polymers" korxonasi bilan.

Rossiyaning "Polymers" kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan mazkur loyiha maxsus va keng assortimentdagi polietilen plyonka mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan.

Bunday plyonkalar zamonaviy iqtisodiyotning ko'zga ko'rinmaydigan, ammo juda muhim bo'g'inlaridan biridir. Bugun oziq-ovqat mahsulotlari, maishiy

texnika, qurilish materiallari, farmatsevtika vositalari va turli sanoat tovarlarining bozorga xavfsiz yetkazilishi, tashqi ta'sirlardan muhofazalanishi ko'p jihatdan zamonaviy qadoqlash texnologiyalariga bog'liq.

6 ming 670 kvadrat metr maydonni egallagan korxonada Italiyaning zamonaviy texnologik uskunalarini asosida keng assortimentdagi polimer va termoqisqaruvchi plyonka mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Uning ishga tushirilishi natijasida 9,5 million dollarlik

import o'rni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilishi ta'minlanmoqda.

Loyiha ikki bosqichli kengaytirish dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Investitsiyalarning umumiy qiymati 15,2 million dollarni tashkil etadi. Uning birinchi bosqichida 7,4 million dollar investitsiya o'zlashtirildi.

Loyiha doirasida 50 ta yangi ish o'rni yaratildi. Keyingi bosqichlarda ish o'rinlari soni yanada ko'payishi kutilmoqda.

2025-yilda bu yerda 115 milliard so'mlik

mahsulot ishlab chiqarildi. Shu bilan birga, 6 million dollarlik mahsulot Markaziy Osiyo davlatlariga eksport qilindi.

Korxonada ishlab chiqarayotgan polimer mahsulotlar "Coca-Cola", "Pepsi", "Flash", "Chernogolovka", "Ackerman", "Asl Oyna", "Biolife" va "Family Group" kabi yirik brendlarning qadoqlash tizimlarida mahalliy xomashyo sifatida qo'llanilmoqda.

Qadoqlash industriyasi zamonaviy sanoatning eng tez rivojlanayotgan

yo'nalishlaridan biri ekani ta'kidlandi. Chunki mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshib borgan sari uni xavfsiz saqlash, tashish va bozorga yetkazib berish talablari ham kuchayotgani qayd etildi. Shu ma'noda, bunday korxonalar sonining ko'payishi nafaqat bir tarmoqning rivojlanishiga, balki oziq-ovqat sanoati, qurilish, farmatsevtika va qishloq xo'jaligi kabi sohalarning barqaror ishlashiga ham xizmat qilishi aytib o'tildi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat

Mirziyoyev "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparkidagi "NovoPlast TPE" korxonasi bilan.

Loyiha Rossiyaning "VR Plast" korxonasi bilan hamkorlikda 4 ming 200 kvadrat metr maydonda amalga oshirilgan. Uning umumiy qiymati 5,4 million dollarni tashkil etadi.

(Davomi 3-betda)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

## MADANIYAT, SAN'AT VA ADABIYOT SOHALARINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA KENG KO'LAMLI CHORA-TADBIRLAR TO'G'IRISIDA

2026-yil 1-iyun kuni o'tkazilgan madaniyat, san'at va adabiyot sohalari bilan sohalarini yanada rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish, shuningdek, ijodkorlarga munosib shart-sharoitlar yaratish hamda sohada xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida qaror qilaman:

#### I. Asosiy maqsadlar

1. Quyidagilar ushbu Farmoni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar etib belgilansin:

(a) teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg'u, tasviriy va amaliy san'at hamda adabiyot kabi yo'nalishlarda ijodiy birlashmalar faoliyatini yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlash;

(b) ijodkorlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, ularning xalqaro tanlovlardagi ishtiroki sonini 2027-yilda 20 foizga, g'oliblar sonini 30 foizga, 2030-yilga qadar ishtirokchilar sonini 5 baravarga, g'oliblar sonini esa 2 baravarga oshirish;

(v) shoir va yozuvchilar tomonidan har yili kamida 50 ta eng sara asarlar yaratilishini, milliy adabiyotning eng yaxshi 10 ta asari xorijiy tillarga tarjima qilinishini ta'minlash;

(g) ijodkorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga munosib shart-sharoitlar yaratish, jumladan, har yili 1 ming nafar ijodkorni uy-joy bilan ta'minlash, 3 ming nafarini bepul davolash;

(d) nodavlat teatr va teatr-studiyalar sonini 2028-yilda 50 taga yetkazib, teatr sohasida xususiy sektor ishtirokini 25 foizga oshirish.

II. Sohada iste'dodlarni yuzaga chiqarishning yangi tizimini joriy etish

2. Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi va keng ijodkorlar jamoatchiligining 1-ilovaga muvofiq madaniyat, san'at va adabiyot sohalarida ijodiy birlashmalarni (keyingi o'rinlarda — ijodiy birlashmalar) tashkil etish to'g'iridagi taklifi ma'qullansin.

#### 3. Belgilansinki:

(a) ijodiy birlashmalar ijodiy rahbarlari va ularga tashkiliy masalalarni hal etishda ko'maklashuvchi hamrahbarlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi;

(Davomi 2-betda)

## O'ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN ROSSIYADA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 4-5-iyun kunlari amaliy tashrif bilan Sankt-Peterburg shahrida bo'ladi.

Davlatimiz rahbari "Pragmatik muloqot — barqaror kelajak sari yo'l" shiori ostida o'tadigan 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumining yalpi yig'ilishida ishtirok etadi va nutq so'zlaydi.

O'zbekiston yetakchisi jahon iqtisodiyotidagi vaziyat, O'zbekiston — Rossiya iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish istiqbollari borasidagi fikrlari bilan o'rtoqlashadi, shuningdek, mamlakatimizni rivojlantirishning bugungi ustuvor yo'nalishlariga to'xtalib o'tadi.

Tashrif dasturida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashuv o'tkazish hamda yurtimizda birinchi integratsiyalashgan atom elektr stansiyasi qurilishini boshlash marosimida ishtirok etish ko'zda tutilgan.

O'zA.

## Gender stereotiplarini gengib o'tish borasidagi O'zbekiston tajribasi e'tirof etildi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston parlament delegatsiyasi Serbiya Respublikasi Xalq yig'ilishi taklifiga binoan ushbu mamlakatda bo'lib turibdi.

### Konferensiya

Dastlab O'zbekiston delegatsiyasi Belgrad shahrida Parlamentlararo Ittifoq Parlamentlar ayol a'zolari global konferensiyasida ishtirok etdi. Unda jami 65 davlatdan 400 dan ortiq parlament delegatsiyalari, xalqaro tashkilotlar vakillari va ekspertlar qatnashdi.

Global konferensiyani Parlamentlararo Ittifoq Prezidenti Tuliya Ekson ochib berdi hamda mazkur xalqaro tadbirning ahamiyati, ayollarning huquq va manfaatlari himoyasining qanchalik dolzarb ekaniga to'xtalib o'tdi.

Unga ko'ra, anjumaning asosiy maqsadi — gender tenglikni ta'minlash, ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish va parlamentda ayollar huquqlari himoyasi bo'yicha tajriba almashishdan iborat.



### Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## MAMLAKAT RAVNAQI, EL FAROVONLIGINING KAFOLATI



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxildir masalalar, jumladan, Toshkent xalqaro moliya markazi va Raqamli

texnologiyalar xalqaro markazining huquqiy asoslarini yaratishga qaratilgan Konstitutsiyaviy qonun loyihalari hamda davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy malakasini oshirish kafolatlarini belgilashga doir qonun loyihalari ko'rib chiqildi. Ushbu masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalarida, mas'ul qo'mitalar, ishchi guruh yig'ilishlarida ekspertlar, tegishli vazirlik hamda idoralar mutaxassislari ishtirokida atroflicha muhokama qilingani qayd etildi.



## ISHONCHLI QO'LDADIR VATAN TAQDIRI

Bugun dunyo geosiyosiy xaritasida sodir bo'layotgan shiddatli o'zgarishlar, mintaqaviy mojarolar va g'ibrid tahdidlar har bir davlatdan nafaqat kuchli iqtisodiyot, balki zamonaviy va jangovar armiyaga ega bo'lishni talab etmoqda. Shu ma'noda, olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar tufayli Qurolli Kuchlar mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashning chinakam kafolatiga aylanib borayotgani quvonarli, albatta. Bu misli ko'rilmagan islohot xavfsizlik poydevori bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi islohi bilan boshlandiki, avvalgi noaniq va muhamb bandler o'rni haqida milliy daxlsizlikni ta'minlashga doir prinsiplar va yondashuvlar aniq belgilab qo'yildi.

### Mushohada

Men Xavfsizlik kengashining ko'plab kengaytirilgan majlislarida ishtirok etganman va har gal Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bu borada har qanday kamchilik va nuqsonlarga qat'iy murossasizligini ko'rganman, ona tuproqqa mehri sust kimsalarga bu tizimda mutlaqo o'rin yo'qligini qayta-qayta ta'kidlaganimni eshitganman. Chegaralarimiz daxlsizligi va yurt osoyishtaligi Oliy Bosh Qo'mondonning bosh maqsadi bo'lib, Yetakchimiz nafaqat O'zbekistonning, balki mintaq va dunyoning tinchligi uchun tolmash kurashchi SHAXS ekaniga ko'p bor guvoh bo'lganman.

O'n yil avval kimdir bugungi islohot mevalaridan nishona haqida so'z ochsa, uning

aqli rasoligi shubha uyg'otishi aniq edi. Qurolli Kuchlar darvozasiga yetti qat qulf urilgani bois o'sha paytlari ichkarida kechayotgan tanazzul ko'pchilikka sezilmagan bo'lishi mumkin. Lekin ozmi-ko'pmi, jarayon ichida yurgan guvoh sifatida ochig'ini aytсам, har tomonlama yopiq, totalitar siyosat oqibatida armiyamiz ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan inqiroz yoqasiga kelgan, xalq tilida ta'riflansa, xonavayron, ramaqjon ahvolda edi. Boz ustiga do'stni yovga aylantirish, yo'q joydan sun'iy dushman orttirish "tajriba"si tufayli yon qo'shnilarni ham begona tutib, tinchligimizga xavfni oshirib olgandik (Agar qo'shnilar bilan do'stona munosabat bo'lganda 2000-yillari har xil buzg'unchi kuchlar yuzlab kilometr yo'l bosib, chegaramizdan o'tgan bo'larmidi?).



Bugun barcha qo'shin turlari zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi uzluksiz oshib boryapti. Milliy armiyamiz yoshlarimiz uchun mardlik va shon-sharaf maktabiga aylandi. Eng muhimi, xalq bilan armiya tobora jipslashib borayotgani harbiy soha rivojiga yangicha

kuch va sifat bag'ishlayotgani kishini quvontiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni boshchiligidagi amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini nafaqat mustahkamladi, balki uni mintaqadagi eng zamonaviy va jangovar armiyaga aylantirdi.



# MADANIYAT, SAN'AT VA ADABIYOT SOHALARINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA KENG KO'LAMLI CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

(b) ijodiy rahbar o'z yo'nalishida yangi iqtidorlarni yuzaga chiqarishga mas'ul hisoblanadi;

(v) ijodiy birlashmalarga birkirtilgan hamrahbarlar: (i) ijodiy birlashma hamda uning yo'nalishiga mos ijodkorlar va jamoalar faoliyatini samarali tashkil etish hamda ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga mas'ul hisoblanadi;

(ii) ijodiy birlashma yo'nalishi bo'yicha mahalla – tuman – viloyat – respublika darajasidagi tanlovlar va madaniy tadbirlarning yillik reja-grafigini ijodiy rahbarlar bilan birgalikda tasdiqlaydi hamda ularni tashkil qiladi;

(iii) xalqaro va respublika tanlovlari g'olib va sovrindorlarining gastrol safarlarini tashkil etishga hamda xalqaro festival va tanlovlarda ishtirok etishiga ko'maklashadi;

(g) hamrahbarlarga o'zlarini bevosita rahbar bo'lgan muassasa (tashkilot, korxon) va uning tizim tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ijodiy birlashmalarga mablag' yo'naltirishga ruxsat beriladi;

(d) ijodiy birlashmalarning faoliyatini moliyalashtirishga yo'naltirilgan homiylik xayriyalari metsenatlik ko'magi hisoblanadi hamda ularga nisbatan qonunchilik hujjatlarida belgilangan imtiyozlar qo'llanadi;

(j) 2027-yildan boshlab ijodiy birlashmalarning yillik ijodiy hisoboti shaklida Milliy ijodkorlar qurultoyi o'tkaziladi hamda unda ijodiy birlashmalarning yil davomida eng yaxshi natija ko'rsatgan ijodkorlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda rag'batlantiriladi:

(i) ijodkorlarning badiiy kechasi, mahorat maktabi va ijod uylari tashkil etiladi;

(ii) bir yil davomida har oyda 5 million so'm miqdorida gonorar to'lanadi;

(iii) uch yil davomida O'zbekiston bo'ylab samolyot, poyezd va jamoat transportidan bepul foydalanadi, bunda tashish xarajatlari bo'yicha olinmay qolgan daromadlar keyinchalik har oyda qoplab beriladi;

(iv) davlat tibbiyot muassasalarida davolanish xarajati to'liq qoplanadi.

4. Iste'dodlarni aniqlash va rivojlantirish, ularning prodyuserlik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan biznes loyihalarni moliyalashtirish maqsadida Madaniyat vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomisiz "Ijodga investitsiya" davlat maqsadli jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma) tashkil etilsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Jamg'armaga 2026-yil 1-iyulga qadar respublika byudjeti hisobidan 200 milliard so'm mablag' ajratish chorasini ko'rsin hamda 2027-yildan boshlab Davlat byudjeti parametrlarida har yili kamida 200 milliard so'm mablag' ajratilishini nazarda tutsin.

6. Madaniyat vazirligi 2026-yil 1-iyuldan boshlab Jamg'arma hisobidan ochiq va shaffof tizim asosida eng istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish tizimini yo'lga qo'yisin.

7. Madaniyat vazirligi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2027-yildan boshlab har yili teatr, cholg'u, xor va raqs yo'nalishida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'rtasida tuman – viloyat – respublika darajasida tanlovlarni o'tkazib borishni yo'lga qo'yisin. Bunda:

(a) har bir yo'nalish bo'yicha respublika darajasidagi tanlovda g'olib deb topilgan umumiy o'rta ta'lim muassasasiga o'z ijodini targ'ib qilish, sahna dekoratsiyalari va liboslari, musiqa asboblari xarid qilish uchun Jamg'arma mablag'lari hisobidan 500 million so'mdan grant beriladi;

(b) respublika tanlovi g'oliblari madaniyat va san'at yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim tashkilotlariga kirishda ijodiy imtihondan ozod etiladi va ularga maksimal ball beriladi.

8. 2026-yil 1-iyuldan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga milliy cholg'u asboblarni sotib olish xarajatlarining 30 foiz qismini Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish tizimi joriy qilin.

III. Sohani qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish

9. Belgilansinki, 2026-yil 1-sentabrdan 2036-yil 1-yanvargacha qadar:

(a) asosiy faoliyati konsert-tomosha, kinematografiya, bolalar uchun kontent yaratish bo'lgan subyektlar, nodavlat teatr va teatr-studiyalar hamda madaniyat va san'at yo'nalishidagi xususiy ta'lim tashkilotlari qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, ayatlanmadan olinadigan soliq, yer solig'i, mol-mulk solig'idan, ularda ishlovchi xodimlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilinadi;

(b) xorijiy kompaniyalarning O'zbekiston hududida kino mahsulotini yaratish bilan bog'liq faoliyati natijasida olgan daromadlari O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga to'lov manbaida soliq solishda soliq bazasiga kiritilmaydi.

10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Soliq qo'mitasi hamda Madaniyat vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda ushbu Farmonning 9-bandida nazarda tutilgan soliq imtiyozlarini taqdim etish bo'yicha qonun loyihasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

11. Quyidagilarni Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan har yili moliyalashtirish tizimi joriy etilsin:

(a) yiliga kamida 50 ta eng sara asarlarni yaratish uchun shoir va yozuvchilarga ijodiy buyurtma berish;

(b) opera, simfoniya kabi mumtoz va zamonaviy janrlar bo'yicha har yili kamida 20 ta yangi asar yaratish uchun ijodkorlarga davlat buyurtmasi berish;

(v) har yili milliy adabiyotning eng sara 10 ta asarini xorijiy tillarga tarjima qilish va mualliflar ishtirokida chet ellarda taqdimotlar o'tkazish xarajatlarini qoplab berish;

(g) Yozuvchilar uyushmasi tavsiyasi asosida chop etiladigan kitoblarni nashr etish uchun qog'oz xarid qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish;

(d) she'riyat bilan san'atni uyg'unlashtirgan holda tashkil

etiladigan eng sara 100 ta she'riy konsertlarni o'tkazish bo'yicha davlat buyurtmasi berish.

12. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu Farmonning 11-bandida belgilangan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun respublika byudjeti hisobidan 2026-yilda 25 milliard so'm, 2027-yildan boshlab har yili 50 milliard so'm ajratsin.

13. Iste'dodlar va ularning ustozlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra 2026-yil 1-sentabrdan boshlab:

(a) madaniyat, san'at va adabiyot sohalaridagi nufuzli xalqaro va respublika tanlovlari g'olib va sovrindorlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan quyidagi miqdorlarda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi:

(i) Gran-pri va 1-o'rin g'olibi – xalqaro tanlov bo'yicha 300 million so'm, respublika tanlovi bo'yicha 100 million so'm miqdorida;

(ii) 2-o'rin sohibi – xalqaro tanlov bo'yicha 200 million so'm, respublika tanlovi bo'yicha 50 million so'm miqdorida;

(iii) 3-o'rin sohibi – xalqaro tanlov bo'yicha 100 million so'm, respublika tanlovi bo'yicha 25 million so'm miqdorida;

(b) tanlovlarning g'olib va sovrindorlarini tayyorlagan o'qituvchi (konsertmeyster)ning oylik maoshiga bir yil davomida 100 foizgacha ustama Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanadi;

(v) nufuzli xalqaro tanlovlarning g'olib (sovrindor)lari va ularning o'qituvchi (konsertmeyster)larining tanlovlarda ishtirok etishi xarajatlari to'liq Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi;

(g) ushbu bandeda nazarda tutilgan qo'llab-quvvatlash choralarini xususiy sektorda faoliyat yurituvchi shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi;

(d) ushbu bandeda nazarda tutilgan nufuzli xalqaro va respublika tanlovlari Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilangan tartib asosida aniqlanadi.

IV. Soha vakillarining ijtimoiy ta'minotini yanada mustahkamlash

14. 2026-yil 1-iyuldan boshlab har yili 1000 nafar uy-joyga muhtoj madaniyat, san'at va ijodiy soha vakillariga birlamchi bozordan kvartira sotib olish uchun quyidagi tartibda ipoteka kreditlarini ajratish yo'lga qo'yilsin, bunda:

(a) Ipoteka dasturi doirasida ipoteka kreditlari ajratishda boshlang'ich to'lov kredit oluvchi tomonidan 2-ilovada belgilangan miqdorlarda shakllantiriladi, bunda shakllantiriladigan boshlang'ich to'loving 50 foizi hamda kredit muddatining birinchi besh yili davomida to'lanadigan kredit foizlarining 10 foizlik punktdan oshgan qismi Davlat byudjetidan qoplab beriladi;

(b) boshlang'ich to'loving 50 foizini qoplab berish Iqtisodiyot va moliya vazirligining "subsidiya.idm.uz" dasturini ta'minot tizimi orqali avtomatlashtirilgan holda amalga oshiriladi.

15. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari madaniyat sohasi vakillarini zarur uy-joylar bilan ta'minlashga mas'ul etib belgilansin.

16. Bir hududda boshqa hududga kelib ishlayotgan va ushbu hududga o'z uy-joyiga ega bo'lmagan madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini vakillariga uy-joy ijarasi to'lovlarining bir qismini quyidagi miqdorlarda qoplab berish tartibi joriy etilsin:

(a) Toshkent shahrida – bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari;

(b) Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda – bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari.

17. Iqtisodiyot va moliya vazirligi mazkur Farmonning 14- va 16-bandlarida nazarda tutilgan xarajatlar uchun 2026-yildan boshlab har yili Davlat byudjetidan 50 milliard so'm ajratsin.

18. 2026-yil 1-iyuldan boshlab ijodiy birlashmalarning tavsiyasi asosida Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan quyidagi xarajatlarni qoplab berish yo'lga qo'yilsin:

(a) har yili 1 ming nafargacha Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan davolanish bo'yicha imtiyozga ega bo'lmagan, biroq o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishgan madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini vakillariga yuqori texnologik operatsiyalarni o'tkazish;

(b) har yili 2 ming nafargacha madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini vakillariga sug'urta mukofoti bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravaridan ortiq bo'lmagan ixtiyoriy tibbiy sug'urta badallari uchun xarajatlarining 50 foizini qoplab berish;

(v) har yili 100 nafargacha sohada kamida 10 yil ishlagan madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini vakillariga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi sanatoriylarida bepul davolanish.

19. Belgilansinki:

(a) 2026-yil 1-sentabrdan boshlab byudjetdan moliyalashtiriladigan teatr va konsert-tomosha muassasalarida faoliyat yurituvchi raqs jamoasining badiiy rahbari, baletmeysteri, repetitorlari, balet artistlarining lavozim maoshlarini mehnatga haq to'lashning bazaviy lavozim maoshlari miqdoriga va (yoki) Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga asosan belgilashda tarif ko'effitsiyentlari miqdori Davlat byudjeti hisobidan 2 baravarga oshirilgan holda qo'llanadi;

(b) davlat muassasalarida raqs san'ati sohasida faoliyat yuritayotgan raqqos va raqqosalarni imtiyozli ish staji bilan pensiyaga chiqarishda talab etiladigan 20 yillik ish stajining kamida 15 yili raqqos va raqqosalik faoliyatidan iborat bo'lgan taqdirda, qolgan 5 yili uchun baletmeyster va balet bo'yicha repetitor faoliyati bilan shug'ullangan davrni inobatga olishga ruxsat beriladi.

20. Nogironligi bo'lgan shaxs deb topilgan yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2026-yil 1-sentabrdan boshlab hududlarda inklyuziv ijodiy ustaxonalar tashkil qilin.

jamg'armasi mablag'lari hisobidan har yili 30 milliard so'm ajratib boriladi.

21. 2026-yil 15-iyundan boshlab 3-ilovaga muvofiq davlat mukofotlari bilan taqdirlangan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi aeroport va temir yo'l vokzallaridagi "VIP" zallardan bepul foydalanish huquqi berilsin.

V. Sohada nodavlat sektor faolligini oshirish

22. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra 2026-yil 1-sentabrdan boshlab:

(a) nodavlat teatr va teatr-studiyalarning quyidagi xarajatlari Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplab beriladi;

(i) har yili 50 ta sahna asari yaratish xarajatlari;

(ii) har oyda xususiy binoni ijaraga olish xarajatlarining bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha bo'lgan qismi;

(b) davlat madaniyat obyektlari ularning huquqi berilsin. Nodavlat teatr va teatr-studiyalarga spektakl namoyish etish uchun ijara to'lovisiz foydalanish uchun beriladi.

Bunda tomosha zalari uchun talabgorlar ikkita yoki undan ko'p bo'lgan taqdirda, ular orasida tanlov o'tkaziladi;

(v) ushbu bandning "a" kichik bandida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish uchun har yili Davlat byudjetidan qo'shimcha 10 milliard so'm ajratiladi.

23. Belgilansinki, 2026-yil 1-iyuldan boshlab Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan:

(a) Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda (Nukus shahri va viloyatlar markazlari bundan mustasno) konsert-tomosha tadbiri tashkil etilgan va bir tadbir doirasida 1 000 tadan ortiq biletlar sotilgan taqdirda, konsert-tomosha tashkilotchilariga sotilgan biletlar qiymatining 20 foiziga teng bo'lgan miqdorda subsidiya beriladi;

(b) davlat va nodavlat teatrlarga o'zi faoliyat yuritayotgan joyda shahnalashtirilgan spektakl uchun sotilgan har bir chiptaga qo'shimcha 10 ming so'm, boshqa hududga chiqqan holda namoyish etilgan taqdirda, 20 ming so'm miqdorida subsidiya beriladi.

24. Belgilansinki, 2026-yil 1-oktabrdan boshlab har yili 500 ming nafar o'qituvchi, shifokor, davlat xizmatchisi, faol o'quvchi va talabalar hamda Ijtimoiy reestrta kiritilgan 100 mingta oilalarning bir nafar farzandiga, shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalarga teatr, kino va konsert tadbirlari uchun bepul vaucher beriladi, bunda:

(a) vaucher qiymatidagi mablag'lar shaxslarning nomiga ochiladigan ijtimoiy karta orqali taqdim etiladi;

(b) vaucher berish bilan bog'liq xarajatlari tegishli ravishda Davlat byudjeti mablag'lari hamda Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

VI. Kinoindustriya sohani yanada rivojlantirish

25. Xususiy kinostudiyalarning mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yish hamda sohada erkinlik va raqobat muhitini shakllantirish maqsadida:

(a) Milliy kinematografiya, kinokompaniya va kinoteatrlar tarmog'ini yanada rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha respublika komissiyasi, Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi, Kinematografiya agentligi huzuridagi Badiiy kengash faoliyati hamda har bir filmga maslahatchilar guruhini birkirtilish amaliyoti tugatilsin;

(b) davlat buyurtmasi asosida yaratiladigan filmlarning mavzusidan kelib chiqib, soha mutaxassislaridan iborat haq to'lanadigan ekspert guruhlari tashkil qilib borilsin. Bunda Badiiy kengash tomonidan ma'qullangan va (yoki) ishlab chiqarishga tushirilgan loyihalarni yakunlash ushbu kengash tomonidan amalga oshiriladi va ular bo'yicha ekspert guruhlarining xulosasini olish talab etilmaydi;

(v) "O'zbekfilm" kinokonserni" davlat muassasasiga "milliy maqomi berilsin hamda uning faoliyati mahalliy va xalqaro kinostudiyalariga xizmat ko'rsatuvchi kinokonsern sifatida yo'lga qo'yilsin;

(g) Iqtisodiyot va moliya vazirligi O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi tomonidan o'tkaziladigan "Oltin Humo" milliy kino taqdimoti nufuzini oshirish maqsadida 2027-yildan boshlab har yili 5 milliard so'm ajratib borilishini ta'minlasin.

26. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq davlat buyurtmasi asosida kino, shu jumladan, Bolalar kontentini rivojlantirish markazi loyihalari yaratilishida:

(a) marketing va reklama xarajatlari uchun film byudjetining 30 foiz miqdorigacha mablag'larni ajratishga ruxsat beriladi;

(b) xarid shartnomalarini ekspertizadan o'tkazish talabi bekor qilinadi;

(v) filmlar namoyishidan tushgan mablag'larning 50 foizi prodyuser va ijodiy guruhga qo'shimcha rag'bat sifatida beriladi.

VII. Hududlarda madaniyat tadbirlarini tashkil etish va kitobxonlikni rivojlantirish

27. 2026-yil 1-iyuldan boshlab Toshkent shahar, Samarqand va Namangon viloyatlari hokimliklari huzurida madaniy tadbirlarni tashkil etish direksiyalari (keyingi o'rinlarda – direksiyalar) faoliyati yo'lga qo'yilsin.

28. Belgilansinki:

(a) direksiyalar tegishli hokimliklar muassisligida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar shaklida tashkil etiladi, boshqa tadbirkorlarga direksiya ustav fondiga o'z pul mablag'lari bilan ishtirok etishiga ruxsat beriladi;

(b) direksiyalar tegishli hududda joylashgan, madaniy, ommaviy, konsert-tomosha tadbirlari tashkil etilishi mumkin bo'lgan binolar, majmualar, pavilyonlar, stadionlar, sahnalar, zallarga (keyingi o'rinlarda – madaniyat obyektlari) ega bo'lgan barcha davlat muassasalar, shu jumladan, konsert, teatr, madaniyat saroylari bilan majburiy ravishda, shunday bino va inshootlarga ega xususiy tashkilotlar bilan esa o'zaro kelishuvlar asosida xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnomalar imzolaydi;

(v) direksiyalar tuzilgan shartnomalar asosida har bir madaniyat obyektlarining har kunlik ish rejimi, ularning band va bo'sh vaqtlari haqida onlayn rejimda ma'lumot olib turadi;

tashkilotchilari bilan madaniy maskanlarning mulkdorlari nomidan shartnomalar tuzadi;

(d) direksiyalar tomonidan mulkdor nomidan tuzilgan shartnomalarga asosan madaniyat obyektlarini tadbirlar uchun ijaraga berishdan tushgan mablag'larning xizmat ko'rsatish shartnomasida tomonlar o'zaro kelishuv asosida belgilaydigan qismi direksiyalarga o'tkazib beriladi;

(j) direksiyalar o'zlarini tuzgan shartnoma asosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarga ruxsat olish bo'yicha tartib-taomillarning bajarilishini bevosita o'zi ta'minlaydi.

29. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Madaniyat vazirligining takliflari asosida 2026-yil yakuniga qadar 50 tadan 100 tagacha chekka va olish hududlardagi mahallalarda namunali mahalla kutubxonasi va kitob do'konlarini tashkil qilsin. Bunda Yoshlar ishlari agentligi:

(a) Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda namunali mahalla kutubxonalarining badiiy, ilmiy-ommabop, ma'rifiy, hujjatli va biografik adabiyotlar bilan to'ldirilishini;

(b) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi bilan birgalikda ushbu kutubxonalar faoliyati to'liq raqamlashtirilishini ta'minlasin;

(v) 2027-yil 1-yanvardan boshlab ushbu kutubxonalarda "Mutola" platformasidan foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilsin.

30. 2026-yil 1-iyuldan boshlab Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatri, Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat akademik musiqali teatri va O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatriga moliyaviy, ijodiy va tashkiliy masalalarni mustaqil hal qilish vakolati berilsin.

VIII. Ta'lim tizimini takomillashtirish

31. 2026/2027 o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 10 tadan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, tajriba tariqasida, musiqa, tasviriy san'at va texnologiya darslarini ilg'or xorijiy tajribaga muvofiq "Art" o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan holda o'qitish yo'lga qo'yilsin. Bunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini "Art" yo'nalishlariga mos holda jihozlash xarajatlarini mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

32. Belgilansinki, 2026/2027 o'quv yilidan boshlab:

(a) bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari mehnatiga haq to'lash miqdorlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash miqdorlariga tenglashtiriladi;

(b) umumiy o'rta ta'lim muassasalarida hamda bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchilari ish haqiga o'quvchilarning cholg'ularini ijro etishi darajasidan kelib chiqib, har oyda 20 foizgacha ustama to'lash tartibi joriy etiladi;

(v) bolalar musiqa va san'at maktablari hamda ixtisoslashgan maktablar bilan umumiy ta'lim muassasalari o'rtasida ijodiy hamkorlik yo'lga qo'yiladi hamda ijodiy jamoalar tomonidan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida davriy ravishda konsert-tomosha dasturlari va mahorat darslari o'tkazib boriladi;

(g) har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasida musiqa va san'at yo'nalishida kamida 4 tadan to'garak tashkil qilinadi.

33. Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Badiiy akademiya ikki oy muddatda yosh ijodkorlarning startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun madaniyat va san'at yo'nalishidagi 10 ta oliy ta'lim muassasasiga Davlat byudjeti va Oliy ta'limni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 50 milliard so'm ajratilishini ta'minlasin.

34. Kasbiy ta'lim agentligi tizimidagi Respublika musiqa va san'at texnikumi hamda Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk texnikumi oliy maktab sifatida qayta nomlangan holda Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazilsin, bunda Respublika musiqa va san'at oliy maktabi hamda Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk oliy maktabida:

(a) bitiruvchilarga kasbiy ta'lim to'g'risida davlat namunasidagi diplom beriladi;

(b) iqtidorli bitiruvchilarga belgilangan tartibda o'z o'qishini tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlarining ikkinchi bosqichidan davom ettirish imkoni yaratiladi;

(v) talabalarga taniqli ijodkorlar birkirtiladi va ularga oliy ta'lim tashkiloti professor-o'qituvchisiga teng miqdorda mehnatga haq to'lash shartlari qo'llanadi.

35. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi hamda O'zbekiston davlat konservatoriya huzuridagi Musiqa sohasi pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi negizida Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'at xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti tashkil qilin.

IX. Farmon ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

36. Madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 5-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

38. Madaniyat vazirligi ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

39. Ushbu Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsan javobgar etib madaniyat vaziri O.A.Nazarbekov belgilansin.

40. Farmon ijrosini nazorat qilish va mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

<b>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti</b>
--







## JOYLARDA IJTIMOY-IQTISODIY ISLOHOTLARNING IJROSI O'RGANILMOQDA

Oliy Majlis Senati a'zolari joylarda bo'lishib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirish dasturlarida belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini o'rganmoqda.

Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Odiljon Mamatkariyov Namangan viloyatiga xizmat safari doirasida aholi muammolarini o'rganib, fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazdi.

Uychi tumanidagi 4-texnikumda sayyor qabul tashkil etilib, fuqarolarning ijtimoiy soha, bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalariga taalluqli murojaatlari eshitildi. Ularning aksariyati joyida ijobiy hal etildi, qo'shimcha o'rganish talab qilinadigan masalalar bo'yicha esa mutasaddi tashkilotlar rahbarlari zimmasiga tegishli vazifalar yuklatildi.

Jumladan, tibbiyot muassasalaridan birini portativ EKG apparati bilan ta'minlash masalasi ko'tarildi. Mazkur murojaat yuzasidan viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi rahbariyati bilan muloqot qilinib, muassasani zarur tibbiy jihoz bilan

ta'minlash choralari belgilandi.

Yana bir murojaatda aholiga qulaylik yaratish maqsadida mahallalardan birida kommunal to'lovlarini amalga oshirish imkonini beruvchi bankomat o'rnatish masalasi ko'tarildi. Ushbu masala ham o'z yechimini topdi.

Bundan tashqari, senator ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, yolg'iz keksalar va nuroniyalar holidan ham xabar oldi.

Shuningdek, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari Kobil Tursunov boshchiligidagi ishchi guruh Surxondaryo viloyatida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirish dasturlarida belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini parlament nazorati doirasida o'rganmoqda.



Prezidentimizning farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosi, jumladan, viloyatda yuqori va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini uchinchi darajada shart-sharoitlar yaratish, mavjud qayira hamda imkoniyatlarni samarali ishga solish, "yashil iqtisodiyot" tamoyilini keng joriy etish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish, shuningdek, turizm salohiyatidan unumli foydalanish borasida bajarilayotgan ishlarga e'tibor qaratilmoqda.

hamda hududlarni kompleks rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar muvofiq qilinadi.

Muhokamalar davomida mavjud muammolarni bartaraf etish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish yuzasidan tegishli tavsiya va takliflar bildirildi.

Ishchi guruh o'rganish ishlarini davom ettirmoqda.

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova ham Farg'ona viloyatining Zo'yovon tumanida "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahalla" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Jumladan, qator ziyoratgohlarda ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda. Xususan, "Soy Yoni" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "G'oyib ota" ziyoratgohida qurilish-ta'mirlash ishlari sifati, qurilish jarayonlarining borishi

va ziyoratgoh infratuzilmasini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan fikrlar bildirildi. Shuningdek, Xalfa buva va Yuqori mahallalaridagi ziyoratgohlarda yaratilayotgan shart-sharoitlarga, tashrif buyuruvchilar uchun qulayliklarni ko'paytirish va obyektning arxitekturaviy qiyofasini saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, xalq deputatlari Zo'yovon tumani Kengashida deputatlar, davlat tashkilotlari va muassasalar rahbarlari ishtirokida uchrashuv ham o'tkazildi. Unda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini qiyab kelayotgan ayrim muammolarni hal etish, ijtimoiy soha obyektlari faoliyatini yanada takomillashtirish, infratuzilmani rivojlantirish masalalari hamda fuqarolar murojaatlarida ko'tarilayotgan masalalar muvofiq qilinadi.

Senator tumanda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqib, mas'ullarga tegishli tavsiyalar berdi.

"Xalq so'zi".

## MAMLAKAT RAVNAQI, EL FAROVONLIGINING KAFOLATI

### Toshkent xalqaro moliya markazining huquqiy asosi mustahkamlanmoqda

Deputatlar dastlab "Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasini ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqdi.

Mazkur hujjat mamlakatda raqobatbardosh kapital bozorini rivojlantirish, investitsiya oqimini kengaytirish, O'zbekistonni mintaqaviy moliyaviy xab sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasida moliya markazining huquqiy maqomi, faoliyat tamoyillari, boshqaruv tizimi, vakolatlari va markaz hududida amal qiladigan maxsus huquqiy rejim aniq belgilangan. Jumladan, markaz hududida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, mazkur Konstitutsiyaviy qonunga va moliya markazining qarorlariga zid bo'lmagan holda Angliya va Uels huquqining prinsiplari, qonunchiligi va sud pretsedentlari amal qilishiga oid qoidalar o'z aksini topgan.

Majlisda dunyoning yetakchi moliya markazlari – Dubay xalqaro moliya markazi (DIFC), Ostona xalqaro moliya markazi (AIFC) va Singapur tajribasi atrofida o'rganilgan ta'kidlanib, qonun loyihasi bilan Toshkent xalqaro moliya markazining institutsional tuzilmasi belgilanayotgani qayd etildi.

Shuningdek, markaz ma'muriyati, Toshkent moliyaviy xizmatlar boshqarmasi va Toshkent xalqaro tijorat sudining huquqiy maqomi mustahkamlanmoqda. Bundan tashqari, Toshkent moliyaviy xizmatlar boshqarmasi litsenziyalash, nazorat qilish va ta'sir choralari qo'llash vakolatiga ega bo'ladi. Toshkent xalqaro tijorat sudi esa markaz ishtirokchilari o'rtasidagi nizolarni mustaqil ravishda ko'rib chiqadi.

Loyihada markaz ishtirokchilari va ularning xodimlariga xorijiy valyutalarda hisob-kitob amaliy bajarish, chet ellik mutaxassislar ishga qabul qilish, besh yilgacha amalda bo'ladigan maxsus vizalar olish huquqi berilishi ham nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, markaz hududida soliq va bojxona imtiyozlari joriy etilishi belgilangan.

Ushbu qonun loyihasi bilan Konstitutsiya va qator qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Xususan, Konstitutsiyaning 15-moddasiga kiritilayotgan qo'shimchaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida yagona yilgacha makon saqlangan holda, alohida hududlarda qonun asosida maxsus huquqiy rejim o'rnatish imkoniyati belgilanmoqda. Bosh qomusimizning 131-moddasiga kiritilayotgan qo'shimcha bilan esa maxsus huquqiy rejim amal qiladigan hududlarda ixtisoslashgan sudlar tashkil etilishi mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, 134-moddaga kiritilayotgan o'zgartirish bilan ayrim maxsus holatlarda sud yurisdiksiyasi va sud ishlarini yuritish tartibi qonun bilan alohida belgilanishi mumkinligi mustahkamlanmoqda.

### Davron ARIPOV, Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Qonun loyihasi ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida keng muhokamalardan o'tkazildi. Xususan, davra suhbatlari, seminarlar tashkil etildi, deputatlar, ekspertlar, konstitutsiyaviy huquq sohasi olimlari takliflari asosida bir qator tahririy va yuridik tuzatishlar kiritildi, ayrim normalar takomillashtirildi. Aytish mumkinki, mazkur Konstitutsiyaviy qonun loyihasi mamlakatimizda ochiq va zamonaviy iqtisodiy muhitni shakllantirish, investitsiyaviy faollikni oshirish hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yangi

bosqichga olib chiqishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasining ayrim normalari yuzasidan aniqlashtiruvchi savollar berildi, fikr-mulohazalar almashildi. Shuningdek, siyosiy partiyalar fraksiyalar rahbarlari hamda a'zolari ushbu hujjat yuzasidan o'z munosabatlarini bildirishdi.

### Nodir TILAVOLDIYEV, "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi:

– Mazkur Konstitutsiyaviy qonun loyihasi fraksiyamizda ham atroflicha muhokama qilinib, mamlakatimiz milliy manfaatlarini, iqtisodiy mustaqilligini va xalqaro nufuzini mustahkamlash nuqtayi nazaridan baholandi. Unda investorlar huquqlari himoyasi, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va xalqaro standartlarni joriy etishga qaratilgan normalar nazarda tutilgani e'tiborga molik. Shuningdek, markaz faoliyati natijasida yangi ish o'rinlari yaratilishi, moliya sohasida yuqori malakali milliy kadrlar maktabi shakllanishi va yoshlarimiz uchun yangi kasbiy imkoniyatlar paydo bo'lishi kutilmoqda. O'zbekistonda xalqaro moliya markaziga ega bo'lishi mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bilan birga, uning xalqaro maydondagi nufuzini ham mustahkamlaydi. Bu esa milliy davlatchiligimizning iqtisodiy poydevorini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

### Shuhrat YOQUBOV, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi:

– Biz ushbu qonun loyihasini nafaqat fraksiyamizda, balki elektoratimiz o'rtasida, shuningdek, h u q u s h u n o s o l i m l a r i s h t i r o k i d a h a m a t r o f l i c h a m u h o k a m a d a n o'tkazdik. Ta'kidlash joizki, partiyamiz uchun har qanday iqtisodiy tashabbusning asosiy mezonini – uning inson manfaatlariga, ijtimoiy adolat tamoyillariga va qonun ustuvorligiga xizmat qilishi hisoblanadi. Mazkur hujjat aynan shu jihatlari bilan ahamiyatlidir.

Eng avvalo, qonun loyihasi investorlar uchun shaffof, barqaror va ishonchli huquqiy muhit yaratishga qaratilgan. Investorlar huquqlarining ishonchli himoya qilinishi, mulk daxlsizligining kafolatlanishi va xalqaro huquqiy standartlarning joriy etilishi mamlakatimizda qonun ustuvorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa partiyamiz doimo ilgari surib kelayotgan huquqiy davlat tamoyillariga to'liq mos keladi.

Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

Raqamli texnologiyalar sohasi rivoji uchun keng imkoniyatlar

Majlisda "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan markaz hududida maxsus huquqiy rejimni yaratish, xususan, ro'yxatga olish, litsenziyalash va tadbirkorlik tartib-taomillarini soddalashtirish, tijorat operatsiyalarini tartibga solishda xalqaro standartlarni qo'llash nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, moslashuvchan soliq va bojxona rejimini joriy etish, jumladan, 2100-yilgacha bo'lgan muddatga ayrim faoliyat turlari bo'yicha

solisqlardan ozod qilish, asbob-uskunalar, texnologiyalar va materiallarni olib kirishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish taklif qilinayapti.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga ko'ra, Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslangan maxsus qonunchilik bilan birga Angliya va Uels umumiy huquqining elementlariga hamda yetakchi xalqaro moliya markazlarining standartlariga asoslangan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Qonun loyihasida markaz ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini, jumladan, ro'yxatga olish va boshqarish uchun yagona darcha tashkil etish, intellektual mulk va investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari joriy etish, davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik yo'nalishlarini belgilash nazarda tutilmoqda.

### Behzod TO'XTAMURODOV, Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalar masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida qator aniqlashtiruvchi o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi hududida axborot xavfsizligini yanada kuchaytirish maqsadida bulutli texnologiyalardan foydalanishda ma'lumotlarning xavfsizligi, yaxlitligi, muhofazasi, ishonchligi, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash hamda ularidan foydalanish imkoniyati ta'minlanishi zarurati nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, markazning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va investitsiya kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlari, jumladan, investitsiyalarni himoya qilish kafolatlari takomillashtirilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi, ayrim normalari bo'yicha aniqlashtiruvchi savollar o'rta taga tashlandi.

### Shahnoza XOLMAHAMATOVA, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:

– Mazkur Konstitutsiyaviy qonun loyihasi mamlakatimizning raqamli taraqqiyot yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Negaki, bugungi kunda investitsiyalar qulay huquqiy muhit, zamonaviy infratuzilma va ishonchli axborot xavfsizligi mavjud bo'lgan hududlarga kirib bormoqda.

Qonun loyihasidagi huquqiy normalar aynan shu omillarni ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, loyihada aks etayotgan xalqaro standartlarga mos huquqiy mexanizmlarning joriy qilinishi, investorlar huquqlarining kafolatlanishi, intellektual mulk himoyasining kuchaytirilishi hamda axborot xavfsizligiga alohida e'tibor qaratilishi mamlakatimizning raqamli iqtisodiyotdagi raqobatdoshligini oshiradi.

### Ziyodbek YUNUSOV, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi:

– Qonun loyihasining eng muhim jihati – unda xorijiy investorlar va yuqori texnologiyali kompaniyalar uchun asr oxirigacha, ya'ni 2100-yilgacha kafolatlangan maxsus huquqiy rejimning belgilanayotganidir. Ya'ni ushbu hujjat bilan markaz hududida ingliz huquqi elementlarini, raqamli innovatsiyalar uchun "tartibga solish qumdonlari"ni joriy etmoqdamiz.



Bu – xalqaro biznes tilida gapiradigan yirik IT-gigantlar uchun eng ishonchli signaldir. Ushbu hujjat qabul qilinishi orqali mamlakatimizga nafaqat yirik investitsiyalar va transmilliy korporatsiyalar kirib keladi, balki yurtimizda minglab yuqori daromadli ish o'rinlari yaratiladi, mahalliy IT-industrial ekotizim yangi bosqichga chiqadi.

Majlisda qayd etilganidek, qonun loyihasi markaz ishtirokchilari sonining ko'payishi hisobiga IT sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishga, raqamli sektorga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytirishga, IT xizmatlari eksporti hajmining oshishi hamda O'zbekistonning raqamli texnologiyalar sohasida mintaqaviy yetakchi sifatidagi mavqeqini oshirishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi va Senatga yuborildi.

### Qonun loyihasidagi normalar takomillashtiriladi

Deputatlar davlat fuqarolik xizmatchisining xorijiy nufuzli oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi uchun qo'shimcha kafolatlari yaratishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqdi.

Ushbu hujjat davlat fuqarolik xizmatchilarini yanada qo'llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratish, davlat organlari va tashkilotlarida professional va salohiyatli kadrlar qatlamini shakllantirishni nazarda tutadi.

Qonun loyihasi bilan davlat xizmatchisi nufuzli xorijiy ta'lim muassasasiga magistratura yoki doktoranturada o'qish bo'yicha grant yutganda, ish beruvchining yozma roziligi asosida uning ish o'rnini (lavozimlari) saqlanishi taklif etilmoqda.

Shuningdek, ish beruvchi tomonidan rozilik berishda o'quv dasturining yo'nalishi ushbu davlat organi faoliyatini bilan bevosita bog'liq bo'lishini inobatga olish nazarda tutilayapti.

Loyihada o'quv dasturi yakunlangandan so'ng davlat fuqarolik xizmatchisi zimmasiga tegishli davlat organi zimida xorijda tahsil olish davriga teng muddatga ishlab berish majburiyati ham yuklanmoqda.

Shu bilan birga, davlat fuqarolik xizmatchisining

xorijda o'qish davri uning mehnat stajiga qo'shib hisoblanishi, ko'p yillik xizmati uchun har oylik ustama belgilashda inobatga olinishi ko'rsatilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi, qator savollar ko'tarildi.

### Saydullo AZIMOV, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:

– Qonun loyihasi 421-moddasining so'nggi tahriri ayrim jihatlarda tushunarsiz holatni keltirib chiqarmoqda. Xususan, norma davlat fuqarolik xizmatchisi grant yutishi uchun davlat organi rahbarining roziligi talab etiladi, degan mazmunda talqin qilinishi mumkin. Aslida masala grant yutishi uchun emas, balki davlat xizmatchisi o'qishga qabul qilinganidan keyin uning ish o'rnini saqlanishi bilan bog'liq kafolatlarga taalluqlidir.

Grantga hujjat topshirish, malaka oshirish yoki o'qishga kirish har bir fuqaroning huquqi hisoblanadi. Bu jarayon davlat organi rahbarining roziligiga bog'lanmasligi kerak. Masala faqat xodim o'qishga qabul qilinganidan keyin uning ish o'rnini saqlanishi bilan bog'liq kafolatlarga taalluqlidir.

Grantga qarabmasdan, moddaning so'nggi qismida "davlat organi rahbari tomonidan rozilik berish uchun asos bo'ladigan ikki jihat aniq ko'rsatib o'tilgan. Ya'ni ta'lim dasturining yo'nalishi davlat xizmatchisining funksional vazifalari yoki tegishli davlat organi faoliyatini yo'nalishi bilan bevosita bog'liq bo'lishi belgilanmoqda.

Shunga qarabmasdan, moddaning so'nggi qismida "davlat organi rahbari tomonidan rozilik berish asoslari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi", degan norma ham saqlanib qolmoqda. Bu esa muayyan darajada huquqiy ziddiyatni keltirib chiqarmaydimi?

Qonun loyihasiga mas'ullar bu bo'yicha izoh berib o'tishdi. Munozaralarda deputatlar tomonidan loyiha yuzasidan e'tirozlar bildirildi. Undagi ayrim moddalarni qayta ishlash va maromiga yetkazish bo'yicha takliflar ilgari surildi. Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi mas'ul qo'mita tomonidan takomillashtiriladigan bo'ldi.

### Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

# QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLI VA INNOVATSION O'ZGARISHLAR



Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat iqtisodiy, balki eng muhim geosiyosiy va insonparvarlik masalasiga aylandi. Jahonda sodir bo'layotgan ziddiyatlar, iqlim o'zgarishi hamda iqtisodiy beqarorlik fonida ushbu mavzu har qachongidan ham dolzarb, desak, ayni haqiqat.

## Nuqtai nazar

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda surunkali ochlikdan aziyat chekayotganlar soni 800 milliondan ortiqni tashkil etadi. Ayrim davlatlar o'rtasidagi qarorlar esa bu boradagi jarayonlarni yanada qiyinlashtirib bermoqda. Tashish va energiya xarajatlari oshishi natijasida oziq-ovqat narxlari yuqorilgacha qolmoqda. Logistik zanjirlari uzilishi rivojlanayotgan davlatlarga mahsulot yetib borishini murakkablashtirayotir. O'g'it tanqisligi esa kelgusi yillarda hosildorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Mutaxassislar fikricha, agar tekzor hamda muvofiqlashtirilgan xalqaro choralar ko'rilmasa, to'yib ovqat yemaydiganlar soni yaqin yillarda yana bir necha o'n millionga oshishi xavfi bor.

turdagi mahsulotlar (bug'doy, shakar, yog' va boshqalar) bo'yicha davlat xaxiralarini mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda. Qolaversa, bunday ishlar tashqi bozorda narxlar "sakragan" bir paytda ichki bozorda barqarorlikni saqlashga xizmat qilayotir.

Yaqinda Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan yig'ilishda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va chorvachilikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar hamda kelgusidagi rejalar obdan muhokama qilindi. Bu bejiz emas. Mazkur yig'ilishda ilgari surilgan takliflar hamda belgilangan vazifalar mamlakatimizning milliy xavfsizligini mustahkamlash, xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish va aholini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash borasidagi qat'iy irodasini yana bir bor namoyon etdi.

O'zbekiston bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida aholini arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shuningdek, yuqori eksport salohiyatini ko'rsata olyapti. Birgina 4 million gektar ekin maydoni, 1,5 million tonna sig'imga ega saqlash omborlari hamda 3,5 million tonna mahsulotni qayta ishlash quvvatlari buning yaqqol tasdiq'idir. Qolaversa, davlatning 2030-yilga qadar oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 10 milliard dollarga yetkazish hamda eksport geografiasini 100 ta davlatga kengaytirish rejasini strategik ahamiyatga ega. Bunday yuksak marralarga erishish uchun, albatta, tizimli o'zgarishlar va xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritish zarur.

## Tahlil asosidagi yangi rejalar

Yig'ilishda eng muhim masalalardan biri sifatida oziq-ovqat xavfsizligi tizimini xalqaro talablarga moslashtirishning dolzarbligi ta'kidlandi. Hozirgacha uchta idoraning (O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, sanitariya-epidemiologiya tizimi) oziq-ovqat xavfsizligi nazorati bo'yicha shug'ullanishi, yagona ma'lumotlar bazasining mavjud emasligi va vazifalarning takrorlanishi tadbirkorlar uchun jiddiy muammolar tug'dirayotgani tanqid qilindi. Endilikda ushbu masalalarni hal etish

maqsadida Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi qo'mitasiga asos solinadi. Ushbu yangi markazlashgan tizim "daladan - dasturxonigacha" tamoyili asosida barcha nazorat jarayonlarini qamrab oladi. O'simliklar karantini, veterinariya va sanitariya-epidemiologiya tizimlarining oziq-ovqat xavfsizligiga mas'ul funksiyalarini birlashtiradi. Eskirgan, tadbirkorlarga to'siq bo'layotgan tekshiruvlardan voz kechib, xavfga asoslangan nazorat va tekshiruv tartibini joriy etadi.

Elektron tizim orqali xavfli mahsulotlar haqida tekzor xabar berish va ularni qaytarib olish imkoni yaratiladi. Yevropa Ittifoqidan kelib tushayotgan pestitsid qoldiqlari bo'yicha ogohlantirish (25 ta) mahsulot xavfsizligi nazorati tizimini tubdan o'zgartirish zarurligini ko'rsatdi. Yangi tizimda majburiy sertifikatlash bekor qilinib, o'rimga xavfga asoslangan nazorat joriy etiladi.

Bundan tashqari, 2029-yildan boshlab mevasabzavot eksporti faqat agrologistika markazlari orqali amalga oshiriladi. Yirik korxonalar xalqaro xatarlar tahlili standarti va Alimentarius kodeksi talablariga 2032-yilgacha yuz foiz muvofiqlashtiriladi. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan tumanlarda jamoatchi inspektorlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

O'zbekiston davlat xizmatlarini xususiy sektorga o'tkazish siyosatini davom ettirmoqda. 2027-yildan boshlab laboratoriya tekshiruv, hayvonlarni emlash, dezinfeksiya hamda identifikatsiya kabi 6 ta davlat funksiyasi xususiy sektorga beriladi. Bu esa sohada raqobat muhitini yaratish, sifatini oshirish va xizmatlar ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Viloyat hokimlariga xususiy laboratoriya va veterinariya klinikalarini tashkil etish topshirilgan chorvachilikni qo'llab-quvvatlashdagi muhim odimdir. Zero, chorvachilik oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi eng muhim soha hisoblanadi.

## Ulkan maqsad sari qo'yilgan dadil qadam

Yig'ilishda belgilangan vazifalar, yaratilayotgan yagona markazlashgan tizim, xalqaro standartlarga moslashuv, xususiy sektorga keng imkoniyatlar yaratish hamda aholini sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar yurtimizning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu chora-tadbirlar, shubhasiz, 2030-yilga qadar eksportni 10 milliard dollarga yetkazishdek ulkan maqsad sari qo'yilgan muhim qadamdir. Yangi O'zbekiston jadal sur'atlarida raqamli transformatsiya sari yuz tutib, har bir sohada zamonaviy texnologiyalarni qo'llash boshlandi. Bu borada qishloq xo'jaligi, mamlakatimiz iqtisodiyotining tayanch ustunlaridan biri, ayniqsa, ulkan o'zgarishlar arafasida turibdi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish maqsadida yo'lga qo'yilayotgan yangi tizimlar ilmiy-texnik yutuqlarga asoslangani bilan alohida ahamiyatga molik. Xususan, "Agroko'makchi" mobil ilovasidagi

elektron "Dala daftari" tizimi fermerlarning hayotini osonlashtirishga qaratilgan inqilobiy yechimdir. Endilikda har bir dehqon o'z dalasidagi holatni, ekinlarning rivojini, zararkunandalar mavjudligini onlayn kuzatib borishi mumkin. Sun'iy intellekt (SI)ning tutgan o'rni bu yerda beqiyos. SI zararkunandalarning tarqalish tendensiyalarini oldindan bashorat qilib, fermerlarga eng optimal vaqtda eng samarali choralarini qo'llash bo'yicha aniq tavsiyalar beradi. Bu esa hosil yo'qotishlarining oldini oladi, zararkunanda hamda kasalliklarning yoppasiga tarqalishiga yo'l qo'yilmaydi. SI kerakli joyda, zarur miqdorda dorilash imkonini beradi, bu, o'z navbatida, ekologik xavfsizlikni oshirib, xarajatlarni kamaytiradi. Optimal tadbirlar natijasida resurslar (suv, o'g'it, pestitsidlar) tejiladi.

Darvoqe, davlatimiz rahbari taklif etgan "Faol va halol ishlayotgan fermerlar reytingi"ning ishga tushirilishi qishloq xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimining muhim elementi, deyish mumkin. Reytingda yuqori o'rinni egallagan fermerlarning qo'shimcha imtiyozlar (imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, yangi texnologiyalarni sotib olishda ko'mak olish) ularni yanada samarali mehnat qilishga undaydi. Shu bilan birga, raqobat muhitini shakllantiradi, fermerlar bir-birlaridan o'rganib, yangicha usullarni qo'llashga intiladi. Qolaversa, ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, eng yaxshi tajribalar keng tarqaladi. Muhimi, mahsulotlar sifati yanada ko'tariladi.

## Eksportyorlar uchun muhim yangilik

Ta'kidlash joizki, 2027-yil 1-martgacha ishga tushiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha yagona avtomatlashgan axborot platformasi va uning chegaradagi "Yagona darcha" tizimi bilan integratsiyasi - eksportyorlar uchun ulkan yangilik. Bir necha kunlab davom etadigan byurokratik jarayonlarning 9 kundan 2 kunga (import), 3 kundan 1 kungacha (eksport) qisqartirilishi eksportyorlarning vaqt va mablag'ini sezilarli darajada tejaydi. Natijada "ombor xarajatlari" qisqarib, eksport ko'lami kengayadi. Mahsulotlar tezkorlik bilan xorijiy bozorlarga yetib boradi, bu yangi bozorlarni egallashga yo'l ochadi.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan bu raqamli va innovatsion o'zgarishlar O'zbekistonni nafaqat oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash, balki jahon bozorida raqobatbardosh eksportyor sifatida maydonga chiqishga tayyorlamoqda. SI, mobil ilovalar, yagona axborot platformalari hamda "Yagona darcha" tizimining joriy etilishi qishloq xo'jaligini yangi, yuqori samarali bosqichga olib chiqadi. O'z navbatida, har bir o'zbek oilasining dasturxonini to'kin bo'lishi hamda mamlakatning iqtisodiy ravnaqiga xizmat qiladi.

**Bahodir MIRZAYEV,**  
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor.

## «O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI» AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISH TO'G'IRISIDA

**Jamiyatning nomi:** "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati.

**Joylashgan joyi:** 100084, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 101-uy.

**Elektron pochta manzillari:** info@nbu.uz, webmaster@nbu.uz

**Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi va mazzili:** 2026-yil 22-iyun, soat 15:00. Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 101-uy.

**Aksiyadorlarning reestri shakllantiriladigan sana:** 2026-yil 18-iyun.

## Kun tartibiga kiritilgan masalalar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyatining yillik umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;
2. Aksiyadorlik jamiyatining yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;
3. 2025-yil yakunlari bo'yicha Biznes-reja bajarilishi to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash;
4. Bank guruhining 2025-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha konsolidatsiyalashgan yillik hisobotini tasdiqlash;
5. Aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil natijalari bo'yicha Kuzatuv kengashi hisobotini tinglash;
6. 2025-yil yakunlari bo'yicha sof foydani taqsimlashni ko'rib chiqish;
7. Aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalini oshirish;
8. Aksiyadorlik jamiyatining qo'shimcha aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qarorini tasdiqlash;
9. Affillangan shaxslar bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida 2026-yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlarning yillik yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni tasdiqlash;
10. Banklararo hisob-kitob markazi va hududiy Bosh boshqarmalarning "balansdan tashqari" hisobvараqlarida 5 yildan ortiq muddatdan buyon hisobi yuritilayotgan va undirish manbalari mavjud bo'lmagan qarzdorliklarni hisobdan chiqarish;
11. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" aksiyadorlik jamiyati "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomga o'zgartirish kiritish.

# Buxoro qorako'lining shuhrati qachon tiklanadi?



*O'tgan asming yigirmanchi yillari boshida qorako'li terisi savdosi bilan shug'ullanadigan Germaniya shirkati Buxorodan bir necha bosh qo'yni Janubiy Amerikaga olib borib tajriba o'tkazdi. Maqsad iqlimi Buxoronikiga o'xshash bu go'shada ularni ko'paytirish ortidan qorako'li terisi yetishtirish edi. Ammo uning o'rninga yungli betartib o'sgan qo'y terilari olindi xolos. "Mana bu qorako'lichilikning faqat Buxoro sahro va iqlimigagina xos bo'lib, maxsus tabiat tarafidan berilgan bir boylik ekanligini ko'rsatadur", deya yozildi "Ozod Buxoro" (hozirgi "Buxoronoma") gazetasi 1923-yil 1-noyabr sonida e'lon qilingan maqolada.*

## Achchiq, ammo ochiq gaplar

O'shanda hamkasblarimiz chamasi, nemislar bunday qo'ylarning bir necha boshini Afrika-ga - o'sha paytdagi mustamlaka o'lka - Namibiya-ga ham olib borishganidan, Amir Olimxon va uning hamrohlari esa Buxoroni tark etayotib ancha-muncha qo'yni qo'shni Afg'onistonga o'tkazganidan bexabar edi. Buni qarangi, qorako'li zotli jonivorlar har ikkala yurt iqlimiga moslashdi. Natijada Namibiya bilan Afg'oniston dunyo bozoriga qorako'li terisini olib chiqadigan yirik eksportchiga aylandi.

Qorako'lichilik tarixiga nazar tashlansa, uning bezogirlik bilan bog'liq jarayon bir tekis kechmaganini ko'rish mumkin, - deydi Buxoro davlat universiteti professori Shodmon Hayitov. - Deylik, u o'tgan asming boshlarida "Germaniya qorako'li shirkati" tomonidan bajonidil xarid qilingan, olmon yurtida bu mahsulot savdosi bilan shug'ullanadigan o'nlab do'konlar faoliyat yuritgan.

Voqealar rivojidan o'zib aytish kerakki, keyinchalik Buxoroda yiliga 1 million dona qorako'li terini qayta ishlaydigan yirik zavod barpo etildi. Korxonada dong'i uzoq-yaqin ketdi. Undan buyurtmachilar oyog'i uzilmay qoldi. Afsuski, zamona zayli bilan zavod

tanazzulga yuz tutdi. Uning nomi viloyat sanoati xaritasidan o'chib ketganiga ham ancha bo'ldi. O'sha korxonaga akamga ergashib ishlagani borganimda endigina 16 yoshga kirgandim, - deya eslaydi 32 yillik ish tajribasiga ega Dilfuza Asadova. - Qorako'li terisidan turli kiyim-kechaklar tikish sirlarini o'rgandim. Zavod yuzlab ishchilar qatori me unchun ham qadrdon korxonaga aylangandi. U yopilgach, anchagacha o'zingma kelolmay yurganman.

Dilfuza opa hozir cho'g'roqqina "Buxoro qorako'li" mas'uliyati cheklangan jamiyatida ishlayapti. Bu yerda bosh qiyimning 15 - 20 xiliga ko'zingiz tushadi. Tayyor mahsulotni, asosan, sayyorlar va mahalliy xaridorlar sotib olmoqda.

Qorako'li terisidan tayyorlangan kiyim-boshni bu mahsulot qadriini biladigan, didi baland kishilar xarid qiladi, - deydi suhbatdoshimiz. - Maqtanishga yo'y mangu oshlangan terini bir ko'rgandayoq qaysi hududda yetishtirilganidan tortib sifatiga aytib bera olaman. Asl Buxoro qorako'li terisi mavjlanadi. Yonib turadi. Afsuski, bundan 20 - 30 yil avvalgisi bilan hozirgisi o'rtasida yeru osmoncha farq bor. Mana, Afg'onistonda yetishtirilgan qorako'li terini

olib ko'ring. Qalamchagul bu terilar xuddi sun'iydek jilolanadi.

Bu suhbat bizni Buxoro hududiy yaylov xo'jaliklari boshqarmasi sari boshladi. Boshqarma tarkibida qorako'lichilikka ixtisoslashtirilgan 7 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyat yuritmoqda. Jami 2 million 141 ming gektardan iborat yaylovlarda 80 ming bosh atrofida qo'y boqilyapti.

Qorako'li terisi va undan tayyorlangan mahsulotlarning asosiy bozori Rossiya Federatsiyasi sanaladi, - deydi boshqarma boshlig'i Faxriddin Qudratov. - Ammo obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, jumladan, xorijiy davlat banklariga qo'yilgan sanksiyalar tufayli bu turdagi mahsulot eksportida muammolar mavjud. Biz vaziyatdan kelib chiqqan holda qo'zilarini o'stirishga qoldirish, qorako'li qo'ylar naslini, genofondini asrash, qolaversa, mamlakat oziq-ovqat ta'minotini yaxshilashga hissa qo'shish harakatidamiz. Negaki, davr shuni taqozo etyapti. Bir dona qorako'li terisini 50 - 70 ming so'mga sotgandan ko'ra, qo'zini o'stirishga qo'yish va bo'rdogiga boqish orqali 1,5 million so'm atrofida daromad ko'rish ma'qul bo'lib turibdi. Qorako'li terilarimizga kelsak, ular

tovlanishi, yengilligi, yuqpaligi jihatdan Namibiyanikidan qolishmaydi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, asl Buxoro sari boshqa joylarnikidan rang-barangligi, gullarining pishiq va mustahkamligi, ranglarining bir tekisda tarqalishi bilan ajralib turadi. Undagi jun tolasi rangi asosidan to uchigacha uch xil rangda tovlanadi. Afsuski, tabiatning mo'jizasi deydishga arzigulik qorako'li terisi va undan tayyorlanadigan liboslar sotuvining hozir bozori chaqqon emas.

Bir paytlar, hatto valyuta vazifasini o'tagan qorako'li terisiga dunyoda talab sust. Buni jahondagi tabiatni, jumladan, hayvonlarni himoya qiluvchi "yashillar harakati"ning dav'ati, ayrim davlatlarda nisbatan arzon sun'iy mo'ynalardan kiyim-kechak tayyorlanayotgani, keyingi yillarda qorako'li terisi sifatiga e'tibor ko'linib darajada emasligi bilan izohlash mumkin. Chunonchi, bir paytlar Qorako'li tumanida shu sohaga ixtisoslashtirilgan korxonaga ochib, tayyor mahsulotlar eksportini yo'lga qo'ygan Boboqul Yo'ldoshevning o'z xotiralariga yozishicha, yosh cho'ponlarda qorako'li terisi sifatiga e'tibor susaygan. Vaholanki, bu borada muayyan tajriba bor. Ko'pni ko'rgan cho'ponlar sog'lom urug'ochi qo'zilarini darhol alohida belgilab, parvarish qilgan. Kelajakda ulardan sifatlari teri olish mumkinligini bilgan. Negaki, 10 - 15 kun o'tgach, qo'zilarining yaxshi-yomonini ajratib olish qiyin.

Qolaversa, tajribali cho'ponlar shu qadar zehnlil, bilimli bo'lganki, qo'zilarini bir ko'rishdayoq uni "Falon o'tarning qo'zichog'i", deya aytib bergan. Shunday cho'pon sulolalarini qadrlash, ularning o'y-tashvishlarini yengillashtirishdan

jamiyat manfaatdor. Biday sahroda qo'yichonlik qilish, eksportbop mo'yna beradigan qo'ylarni ko'paytirish, qorako'lichilik deganda yuragi "jiz" etadigan kishilarni topish ham oson ish emas.

Darvoqe, bundan besh yil muqaddam qorako'li terisini qayta ishlay va uni eksport qilish maqsadida "Buxoroqorako'liklaster" korxonasi barpo etilgan, ochilish marosimida so'z olgan viloyat mas'ullari "U qorako'lichilik sohasida yangi davrni boshlab beradi", deya bashorat qilishgandi. Korxonaga omborlarida to'planib qolgan 20 ming dona atrofidagi xomashyo o'z xaridorini kutib turgani, ular vaqt ta'sirida sifatini yo'qotishi mumkinligi nazarda tutilsa, "yangi davrni boshlash" cho'zilib ketmadi-kimkan degan o'yga borasan kishi. Eksport uchun yangi bozorlar topilmasa, naschilik ishlari risoladagidek yo'lga qo'yilmasa, raqobatbardosh mahsulot yetishtirilmasa, soha nuqul go'sht yetishtirish orqali jon saqlashni o'ylasa, Buxoro qorako'lining shuhratini tiklash haqida qanday gap bo'lishi mumkin?

Biz qorako'li teri sifatini yaxshilash, jumladan, rangini tiklash, mustahkamligini oshirish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib boryapmiz, - deydi Buxoro davlat texnika institutining Yengil sanoat muhandisligi va dizayn kafedrasini professori Sayfullo Musayev. - Keyingi yillarda shu borada beshta ilmiy ish muvaffaqiyatli yoqlandi. Terini oshlash jarayonida xorijdan xarid qilinadigan xrom ishlatiladi. Shogirdlarimizning izlanishlari ko'rsatdiki, sutni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan zardob shu zaharli modda o'rini bosa oladi.

Institut olimlari fikricha, Buxoro qorako'lining shuhratini qayta tiklash lozim. Buning uchun yayoqlar degradatsiyasi, ya'ni o'simliklar qoplarning siyraklashgani, cho'llar tabiiy hosildorligining kamayganiga qarshi samarali chora-tadbirlar olib borish kerak. Deylik, har otar atrofida 40 - 50 gektar yerda ozuqabop cho'li o'simliklarini yetishtirish foydadan xoli emas. Bu o'simliklar gullab, urug'ini shamol vositasida yon-atrofga tarqaladi. Natijada o'simliklar ko'payib, degradatsiya jarayoni sekinlashadi. Bundan tashqari, Afg'oniston va Namibiya-dan urug'ochi qo'ylarni keltirib ko'paytirish maqsadga muvofiq.

Viloyatda naschilikka ixtisoslashtirilgan uch-to'rtta fermer xo'jaligi tashkil etib, faoliyati ilmiy asosda yo'lga qo'yilasa va ular mahalliy hokimliklar tomonidan qo'llab-quvvatlasana ayni muddao bo'lardi, - deydi S. Musayev. - Toki ular go'sht yetishtirish emas, Buxoroning asl qorako'li terilari genofondini saqlash, naschilik ishlari yaxshilash haqida qayg'u'urishsin. Bu sohada raqobat muhitini ham yuzaga keltirardi.

"Yumshoq oltin" degan ta'rifni olgan Buxoro qorako'li bir paytlar jahonning 60 dan ziyod davlatlariga eksport qilingan. Germaniyaning Leypsig shahrida 1965, 1967-yillarda o'tkazilgan xalqaro yarmarkada oltin medalga munosib ko'rilgan. Shu kabi yodda qolarli damlarni eslarkan, soha mutaxassislari dunyo iste'molchilarining arzon, ammo sintetik sun'iy matoli kiyim-kechaklardan voz kechib, tabiiy mo'ynali liboslar kiyishiga umid bog'lamoqda.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

# KESKIN VA MUROSASIZ BAHSLAR ARAFASIDA



**Yana sanoqli kunlardan so'ng AQSH, Kanada va Meksika yashil maydonlarida futbol bo'yicha jahon chempionati boshlanadi. O'zbekiston xalqi katta intizorlik ila kutayotgan mazkur mundial tarixda unutilmas xotira qoldirishi bilan ahamiyatli. Buning sababi barchaga ma'lum: unda O'zbekiston milliy terma jamoasi 34 yil deganda ilk marotaba ishtirok etadi.**

Fabio Kannavaro murabbiyligidagi futbolchilarimiz 26-may tongida 2026-yilgi jahon birinchiligida qatnashish uchun Toshkent – Nyu-York yo'nalishi bo'yicha "Uzbekistan Airways" aviakompaniyasining maxsus livreyasida (tashqi ko'rinish) "Boeing 787 Dreamliner" uchog'ida AQSHga yo'l oldi. Layner milliy jamoamizning ramzlari bilan bezatilgan – "Go Uzbekistan": fyuzelyajning old qismidagi "Go" so'zi kompaniya nomi bilan qo'shilib, terma jamoani olg'a undovchi shiorni hosil qilgan. Samolyotning orqa

qismidan "Olg'a, O'zbekiston!" yozuvi joy olgan bo'lsa, dvigatel qismlarida "UZB 2026" va "Oq bo'rilar" yozuvlari tushirilgan.

Toshkentda yig'inga kirishgan futbolchilarimiz tayyorgarlikning ilk bosqichida 6 – 25-may kunlari, asosan, jismoniy mashg'ulotlarga e'tibor qaratdi. Navbatdagi bosqich – 27-may sanasidan boshlanib, unda taktik va o'yin uslubini shakllantirish ustida ish olib borilmoqda.

Mazkur yig'indagi O'zbekistonning ilk o'rtoqlik


uchrashuvi 1-iyun kuni Kanadaning Edmonton shahrida joylashgan "Commonwealth Stadium" stadionida mezbon davlat terma jamoasiga qarshi bo'lib o'tdi. Unda KONKAKAF mintaqasi vakillari 2:0 hisobida zafar quchdi. 1-bo'lmda yurtdoshlarimiz ancha yaxshi harakat qilgan bo'lsa-da, ikkinchi bo'lmda kanadalik futbolchilar tezkor hujumlari orqali ikki gol kiritib, g'alabani qo'lga kiritdi.

Ikkinchi o'yin esa 8-iyun kuni Nyu-York shahridagi "Icahn Stadium" arenasida Niderlandiya milliy terma

jamoasiga qarshi belgilangan. Ushbu bahsdan so'ng terma jamoamiz Atlanta shahrida o'ziga ajratilgan bazaga borib, jahon chempionatiga tayyorgarlikning uchinchi bosqichini boshlaydi.

Eslatib o'tamiz, futbolchilarimiz "K" guruhida Portugaliya, Kolumbiya va Kongo DR milliy terma jamoalariga qarshi bahs olib boradi.

Quyida o'quvchilarimiz e'tiboriga mundialning barcha 12 ta guruhi, o'yinlar sanasi va boshlanish vaqti taqdim etiladi.



**"A" guruhi**

	O'yin	Yutuq	Durang	Mag'lubiyat	To'plar nisbati	Ochko
Meksika						
JAR						
Koreya Respublikasi						
Chexiya						

12.06.2026	Meksika – JAR	00:00*
12.06.2026	Koreya Respublikasi – Chexiya	07:00
18.06.2026	Chexiya – JAR	21:00
19.06.2026	Meksika – Koreya Respublikasi	06:00
25.06.2026	Chexiya – Meksika	06:00
25.06.2026	JAR – Koreya Respublikasi	06:00

**"B" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Kanada						
Bosniya va Gersegovina						
Shveysariya						
Швейцария						

13.06.2026	Kanada – Bosniya va Gersegovina	00:00
14.06.2026	Qatar – Shveysariya	00:00
19.06.2026	Shveysariya – Bosniya va Gersegovina	00:00
19.06.2026	Kanada – Qatar	03:00
25.06.2026	Shveysariya – Kanada	00:00
25.06.2026	Bosniya va – Qatar Gersegovina	00:00

**"C" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Braziliya						
Marokash						
Gaiti						
Shotlandiya						

14.06.2026	Braziliya – Marokash	03:00
14.06.2026	Gaiti – Shotlandiya	06:00
20.06.2026	Shotlandiya – Marokash	03:00
20.06.2026	Braziliya – Gaiti	05:30
25.06.2026	Shotlandiya – Braziliya	03:00
25.06.2026	Marokash – Gaiti	03:00



**"D" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
AQSH						
Paragvay						
Avstraliya						
Turkiya						

13.06.2026	AQSH – Paragvay	06:00
14.06.2026	Avstraliya – Turkiya	09:00
20.06.2026	AQSH – Avstraliya	00:00
20.06.2026	Turkiya – Paragvay	08:00
26.06.2026	Turkiya – AQSH	07:00
26.06.2026	Paragvay – Avstraliya	07:00

**"E" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Germaniya						
Kyurasao						
Kot-d'Ivuar						
Ekvador						

14.06.2026	Germaniya – Kyurasao	22:00
15.06.2026	Kot-d'Ivuar – Ekvador	04:00
21.06.2026	Germaniya – Kot-d'Ivuar	01:00
21.06.2026	Ekvador – Kyurasao	05:00
26.06.2026	Germaniya – Ekvador	01:00
26.06.2026	Kyurasao – Kot-d'Ivuar	01:00

**"F" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Niderlandiya						
Yaponiya						
Shvetsiya						
Tunis						

15.06.2026	Niderlandiya – Yaponiya	01:00
15.06.2026	Shvetsiya – Tunis	07:00
20.06.2026	Niderlandiya – Shvetsiya	22:00
21.06.2026	Tunis – Yaponiya	09:00
26.06.2026	Yaponiya – Shvetsiya	04:00
26.06.2026	Tunis – Niderlandiya	04:00

**"G" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Belgiya						
Misir						
Eron						
Yangi Zelandiya						

16.06.2026	Belgiya – Misr	00:00
16.06.2026	Eron – Yangi Zelandiya	06:00
22.06.2026	Belgiya – Eron	00:00
22.06.2026	Yangi Zelandiya – Misr	06:00
27.06.2026	Misir – Eron	08:00
27.06.2026	Yangi Zelandiya – Belgiya	08:00

**"H" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Ispaniya						
Kabo-Verde						
Saudiya Arabistoni						
Urugvay						

15.06.2026	Ispaniya – Kabo-Verde	21:00
16.06.2026	Saudiya Arabistoni – Urugvay	03:00
21.06.2026	Ispaniya – Saudiya Arabistoni	21:00
22.06.2026	Urugvay – Kabo-Verde	03:00
27.06.2026	Kabo-Verde – Saudiya Arabistoni	05:00
27.06.2026	Urugvay – Ispaniya	05:00

**"I" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Fransiya						
Senegal						
Iroq						
Norvegiya						

17.06.2026	Fransiya – Senegal	00:00
17.06.2026	Iroq – Norvegiya	03:00
23.06.2026	Fransiya – Iroq	02:00
23.06.2026	Norvegiya – Senegal	05:00
27.06.2026	Senegal – Iroq	00:00
27.06.2026	Norvegiya – Fransiya	00:00

**"J" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Argentina						
Jazoir						
Avstriya						
Iordaniya						

17.06.2026	Argentina – Jazoir	06:00
17.06.2026	Avstriya – Iordaniya	09:00
22.06.2026	Argentina – Avstriya	22:00
23.06.2026	Iordaniya – Jazoir	08:00
28.06.2026	Jazoir – Avstriya	07:00
28.06.2026	Iordaniya – Argentina	07:00

**"K" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Portugaliya						
Kongo DR						
O'zbekiston						
Kolumbiya						

17.06.2026	Portugaliya – Kongo DR	22:00
18.06.2026	O'zbekiston – Kolumbiya	07:00
23.06.2026	Portugaliya – O'zbekiston	22:00
24.06.2026	Kolumbiya – Kongo DR	07:00
28.06.2026	Kongo DR – O'zbekiston	04:30
28.06.2026	Kolumbiya – Portugaliya	04:30

**"L" guruhi**

	O'	Yu	D	M	T-N	O
Angliya						
Xorvatiya						
Gana						
Panama						

18.06.2026	Angliya – Xorvatiya	01:00
18.06.2026	Gana – Panama	04:00
24.06.2026	Angliya – Gana	01:00
24.06.2026	Panama – Xorvatiya	04:00
28.06.2026	Xorvatiya – Gana	02:00
28.06.2026	Panama – Angliya	02:00

Mundialning guruh bellashuvlari 28-iyun kuni yakunlanib, shundan so'ng "play-off" bahslariga start beriladi. 12 ta guruhning 1 va 2-o'rin egalari hamda 8 ta eng yaxshi 3-pog'ona sohiblari jahon chempionatidagi ishtirokini davom ettiradi.

To'rt yillikning eng asosiy musobaqasi final o'yini 19-iyul kuni o'tkaziladi.

Sunnatilla ISLOMOV («Xalq so'zi») tayyorladi.

\*O'yinlar sanasi va boshlanishi Toshkent vaqti bilan ko'rsatilgan.

O'zbekiston meyrbonlik uylari tarbiyalanuvchilari Varshava shahrida rtkazilgan futbol bryicha XVII Polsha xaliaro turniri Iolibi brldi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxonxa 71-259-74-51; kottibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir N. Ostonov.  
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonxa manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.30 Topshirildi – 00.40 1 2 3 4 5 6